

BUXORO XONLIGIDA MAKTAB VA MADRASALARNING QURILISHI

Salimova Farida Sobirjon qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat
Universiteti Tarix Fakulteti 2-kurs magistranti.*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Shayboniylar davrida Buxoro xonligida madrasalar faoliyati, madrasalarning qurilishi, ta'lim tizimi maktablar o'quv faoliyati bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan .

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается деятельность медресе Бухарского ханства в эпоху Шейбанидов, строительство медресе, а также система образования и школы.

ANNOTATION

This article covers the activities of madrasahs in the Bukhara Khanate during the Shaybanid era, the construction of madrasahs, and the educational system and schools.

Kalit so'z: maktab, hujra, qorixona "Xoniya" Govkushon, Fathulla qushbegi, Muhammad Xo'ja Porso, Jo'ybor, Ko'kaldosh, Qulbobo madrasalari, Kalon, Xoja Zayniddin, Baland, Chorbakr.

Shayboniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligidagi asosiy ta'lim muassasalariga madrasa, masjid, hujra , qorixona, va maktablar kirgan.

"Bu davrda ko'plab Samarqand va Buxoroning har bir mahalla, har bir guzarida maktab bo'lib, yaqin atrofdagi masjidning imomi ana shu maktabning domlasi hisoblangan. Maktab egasi maktabdor deb atalib, ularning aksariyati vaqf mulki hisobidan tashkil etilgan. Ayrim hukmdorlar jamiyat a'zolarining ma'naviy qiyofasi va ma'rifatli bo'lishlari haqida qayg'urib, maktablarga e'tibor qaratgan. Shu o'rinda muarrix Muhammad Solihning XVI asrga oid quyidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir. Uningyozishicha, Muhammad Shayboniyxonning birodari Mahmud Sulton Qunduzni qo'lga kiritgach, bu yerda har mahalla qoshida bir maktab ochishga harakat qilgan, kim maktabdor bo'lsa, unga "lutfu inoyat bisyor" ko'rsatgan" ^[1]

Manbalarning guvohlik berishicha XVI asrda shayboniylar davrida maktab, hujra, qorixona, madrasa so'zlarining hammasi bir so'z bilan „bilim beruvchi o'quv maskani" ma'nosida ishlatilgan. Bu ta'lim muassasalari yoshlarning ilm sirlarini egallashlari va savodli bo'lishlarida alohida ahamiyat kasb etgan. Ularning vazifasi bir xil "o'qitish va ta'lim berish" bo'lsa-da, faoliyatlarida farqlar mavjud bo'lgan. Masalan:"Madrasa- oliy o'quv yurti. Arab tilidan olingan, dars o'tadigan joy. Buxoro oliy ta'lim maskanlari faoliyatiga doir hujjatlarda shu so'z

ko'proq qo'llanadi. Bu atama ta'lim berish uchun maxsus qurilgan o'quv binolarini ifodalaydi.

Hujra- madrasalarning ikkinchi nomi. Arab tilidan olingan, "xona" ma'nosida qo'llanadi.

Qorixona- O'quv dargohlarining bir turi. Unda asosan Qur'on hofizlarini tayyorlashga katta e'tibor bergan.

Maktab- har bir guzarda mavjud bo'lgan boshlang'ich ta'lim muassasalaridir."^[2]

Shu bilan birgalikda shayboniy hukmdorlar ta'lim va tarbiya masalalariga ham yetarlicha e'tibor berishgan hamda ko'plab ta'lim muassasalarining qurilishga ham bosh-qosh bo'lishgan.

XVI asr me'morchilik san'atining bir qator namunalari bizning zamonlarimizgacha saqlanib qolgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlarda me'morchilik sohasida katta ishlar qilinganligi tarixiy manbalarda zikr etilgan. Muhammad Shayboniyxon buyrug'i bilan XVI asr boshlarida Samarqandda madrasa qurila boshlagan. 1510 yilda Shayboniyxon vafoti munosabati bilan vaqtincha to'xtab qolgan, keyinroq kelin Mehrlultonxonim tashabbusi bilan 1515-1516 yillarda Samarqanddagi Shayboniyxon madrasasi qurilishi nihoyasiga yetkazilgan. 16 asr boshida Samarqandda Abdurahim Sadr tomonidan madrasa, 1528- 1530- yillarda Ali Ko'kaldosh tomonidan Samarqandda jome' masjidi qurilgan. Toshkentda Navro'z Ahmadxon hukmronligi davrida Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari bo'nyod etilgan.^[3]

Qurilgan inshootlarning nomlari xon, bek, amir, amaldorlar va ruhoniy, shayxlar nomlari bilan yuritilgan. Xuddi shuningdek bu binolarning haqiqiy binokorlari-mohir me'morlar, iste'dodli naqqoshlar va ajoyib xattotlarning hatto nomlari ham bizgacha saqlanib qolmagan."^[4]

"Shayboniylar o'zbek me'morchiligini ravnaq ettirishda temuriylardan keyin eng katta hissa qo'shgan, eng chuqur iz qoldirgan suloladir. Shayboniylar ham xuddi temuriylar singari bunyodkor sulolalardan edi".^[5]

Qadimdan Sharq xalqlari, asosan, O'rta Osiyoda barcha shahar va markazlarda naqshinkor, ganchkor muhtasham binolar qurish an'ana tusiga aylangan. Mohir me'mor va naqqoshlar tomonidan ishlangan bu noyob obidalar pishiq va mustahkam qurilganligi bilan asrlar davomida butun dunyoni hayratga solib kelgan.

Shayboniy hukmdorlar ham bu an'anaga roiya qilgan holda me'morchilik sohasiga katta e'tibor berishgan.

Shayboniy hukmdorlar ham me'moriy inshootlar barpo etishga o'z kuch-qudratlarining ifodasi sifatida qaradilar. Sifatli pishiq g'ishtlardan baland poydevor ustiga qurilgan ko'plab inshootlar bu davr shaharsozligi va me'morchiligi yuksak taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Movarounnahr shaharsozligida temuriylar davri

an'analari davom ettirildi va boyitildi. Shaharlarda ko'plab madrasalar, masjidlar xonaqohlar barpo etildi. Me'moriy inshootlarni qurilishda davlat xazinasidan tashqari xususiylar ham o'z mablag'larini sarflaganligini aytib o'tishkerak.^[6]

Ubaydullaxon (1533-1540) hukmronligi davrida Buxoro xonligida madaniy hayot ravnaq topgan. Ilm-fan, ayniqsa, adabiyot, musiqa sohalarida rivojlanishi bilan birgalikda bu paytda me'morchilik ishlariga ham katta e'tibor berilgan. O'sha davr me'morchilik san'ati namunalaridan biri Mir Arab madrasasi (1536-yil) hisoblanadi. Bu madrasa Shayx Abdulla Yamaniy tomonidan bunyod etilgan. Shayx Abdulla Yamaniy 22 yoshida Samarqandga kelib Xoja Ahrorga shogird tushgan. Madrasa darvozasiga xattot Mirali Fathobodiy Mir Arab Sharq mamlakatlarida mashhurligi to'g'risida bitik yozgan. Madrasa Ubaydullaxon tomonidan ajratilgan mablag' hisobiga qurilgan va o'z davrining oliy ta'lim muassasi hisoblangan. Bu me'moriy inshoot sharq me'morchilik an'alarining "Chor" uslubida, eshiklari esa hotamkori uslubida bunyod etilgan.

Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon (1540-1550) ham ichki nizo-janjallar ko'p bo'lishiga qaramasdan shaharlar obodonchiligi, ilm-fan rivojiga katta e'tibor bergan. Uning davrida Bahouddin Naqshband maqbarasi va xonaqohi qurib bitkazilgan, bog'-rog'lar qad ko'targan.^[7]

Shayboniylar davrida nafaqat hukmdorlar, balki o'z davrining ko'zga ko'ringan va katta moddiy imkoniyatga ega bo'lgan shaxslar ham me'moriy yodgorliklar qurgan. Samarqandda Muhammad Shayboniyxon "Xoniya" va Abusaid nomli madrasalar qurilgan. Buxoro shahri devorining ta'mirlangan. Abdullaxon, Modarixon (Abdullaxon o'z onasiga atab qurdirgan), Govkushon, Fathulla qushbegi, Muhammad Xo'ja Porso, Jo'ybor, Ko'kaldosh, Qulbobo madrasalari, Kalon, Xoja Zayniddin, Baland, Chorbakr, Abdullaxon masjidlari, Toqi Sarrafon, Toqi Zargaron, Toqi Urdfurishon, Toqi Tergaron, Toqi Telpakfurishon kabi 5ta toqlar, Abdullaxon timi, Toshkentda Ko'kaldosh, Baroqxon madrasalari, Kaffoli Shoshiy maqbarasi, Turkistonda Muhammad Shayboniyxon masjidi, Balxda Abdullaxon va Qulbobo ko'kaldosh madrasalari hamda boshqa me'moriy yodgorliklar qurilgan.^[8]

Jo'ybor xojalarining ko'zga ko'ringan vakillari bo'lmish Xoja Islom va Xoja Sa'd tomonidan Buxoro shahri va uning tevaragida qator obidalar qurildi, eskirib ta'mirga muhtoj bo'lib qolganlari esa qayta ta'mirlandi. "Ravzat-ar-rizvon" qo'lyozma asarida bu haqida qimmatli va ko'pchilikka noma'lum ma'lumotlar keltiriladi. Mazkur asarni tadqiq qilish natijasida quyidagi ma'lumotlarni aniqlashga muyassar bo'ldik: Xoja Islomning mablag'lari hisobiga 1558 yili Zandanidagi jome' masjidi to'la qayta qurilgan va kengaytirilgan. Xoja Islom buyrug'i bilan qurilish ishlarini uning safdoshlaridan biri Mavlono Yormuhammad boshqargan.^[9]

1562 yilda Xoja Islom tomonidan Buxoro shahri ichidan o'tadigan Shohrud arig'ining o'ng qirg'og'ida yirik jome' masjidi qurilgan. Ayni bu paytda bu masjid

“Xoja Kalon” masjidi deb atalib, Govkushon madrasasining so‘l tomonida joylashgan. Masjid o‘z davrining yirik sajdagohi sanalib, kattaligi jihatidan Masjidi Kalondan so‘ng ikkinchi o‘rinda turgan. Uning mehrobi oltin suvi yuritilgan naqshlar, shuningdek, Qur’on suralari bilan bezatilgan edi. Masjid hozir ham mavjud. Xoja Islom Buxoro shahrida bir madrasa qurishni ixtiyor qilib, shaharning Govkushon mahallasida yer sotib oladi. Farzandi Xoja Sa’dni chaqirib, unga 70 ming iskandarxoniy nuqratanga beradi va bu mablag‘ni madrasa qurilishiga sarf etishni buyuradi. Xoja Sa’d otasi vafotidan so‘ng Govkushon madrasasi qurilishi poyoniga yetkazgan.^[10]

Buxoro xonligida shaharlar taraqqiyoti va me’morchilik, ayniqsa, Abdullaxon II davrida juda yuksaldi. U madaniyat va ilm fanga homiylik qilgan. Hozirgi paytda O‘rta Osiyodagi XVI asrga mansub me’moriy obidalarining asosiy qismi Abdullaxon davrida qurilgan bo‘lib, manbalarning guvohlik berishicha, ularning soni mingdan ortiq bo‘lgan.^[11]

Abdullaxon II tomonidan qurilgan madrasa xalq orasida qo‘sh madrasa nomi bilan ataluvchi majmuaning shimoliy qismida joylashgan. O‘z davri me’morchiligining XVI asrda erishgan barcha ijodiy yutuqlarini namoyish etadi.^[12]

Bu davrda ham oliy musulmon maktablari-madrasalar mafkuraviy hayotda muhim rol o‘ynagan. Shayboniylar madrasalar ta’sirini mustahkamlashga intilganlar va Buxoro, Toshkent, Samarqand va Balxda bir qator yangi madrasa va masjid binolarini qurganlar. XVI asr me’morchiligida mahobatli binolar, madrasalar, masjidlar, saroylar, maqbaralar, xonaqohlar qurish uchun eng yaxshi usta va me’morlar jalb qilingan.^[13]

Xoja Islomning to‘ng‘ich farzandi va vorisi Xoja Sa’d ham otasi singari Buxoro va uning atrofida turli obidalar qurish uchun mablag‘ni ayamadi. Korxona yaqinidagi guzaridagi hovuz yaqinida 1567-yili uning tomonidan pishgan g‘ishtdan masjid, Kalobod guzarida ikki qavatli madrasa quradi. (Madrasa XX asr 50- yillarida buzib tashlangan.) Xoja Sa’d bunyodkorlik faoliyatida ta’mirtalab binolarni qayta tiklash muayyan o‘rin egallaydi. Shayboniy Abdulazizxon davrida Buxoro shahrining Xiyobon guzarida jome’ masjidi qurilgan bo‘lib, XVI asr 70- yillariga kelib, u ta’mirga muhtoj bo‘lib qoldi. Xoja Sa’d mablag‘i hisobidan masjid ta’mirlangan.^[14]

Shayboniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligida faoliyat ko‘rsatgan asosiy o‘quv inshootlari quyidagi tuzilishda bo‘lgan: Yirik madrasalar, hujralar toqi-ravoqli, ichki-tashqi sahili, masjid, darsxona, tahoratxona, darvoza, hovuzli majmua va kichik madrasalar, odatda, faqat hujralardan iborat bo‘lgan. O‘quv inshootlarini qurilishda g‘ishtin, sangin, ganch, chubin, xom g‘isht kabi homashyolar keng tarqanligi tarixiy manbalarda qayd etib o‘tiladi.^[15]

G‘ishtin- ish mobaynida 43 ta madrasaning pishiq g‘ishtdan qurilgani alohida ta’kidlangan ma’lumotlar uchradi. Bu iboraning ko‘p qismi vaqf hujjatlariga tegishli edi.

Sangin-aksariyat hollarda pishiq g'ishtdan qurilgan madrasalar binolari nazarda tutiladi. "Sangin" forsiydan turkiyga o'girilganda "toshli" ma'nosini anglatadi.

Ganch- madrasalarga oid ma'lumotlarda 13 marta qo'llangan.

Cho'bin (cho'pkori)- madrasalar, hujralar, sarmozorlarda qurilgan o'quv dargohlarining salmoqli qismi cho'bin binolardan iboratdir.^[16]

Pishiq g'isht, sangin,(toshli) va ganchdan bunyod qilingan madrasalar hozirgacha Buxoro shahrining shon- shuhrati dunyoga tarqalishiga xizmat qilib kelmoqda. Bunday madrasalar mustahkam, issiq-sovuq, yog'ingarchiliklardan yaxshi himoyalangan o'quv inshootlari edi. Ko'p hollarda quruvchilar bu inshootlarni yuksak me'morchilik san'ati darajasiga ko'tarishgan. Nodirdevonbegi, Ko'kaldosh, Labi Hovuz qoshida bir zum to'xtab, atrofni kuzatgan kishida bunga zarracha shubha qolmaydi.^[17]

Abdusattor Jumanazarning "Buxoro xonligi ta'lim tizimi" asarida keltirilgan quyidagi ma'lumot diqqatimizni tortdi: "G'ishtga munosabat. Jo'ybori Kalon madrasasi vaqf hujjatiga voqif: "Agar imoratning biror tag'ishti siniq holda qolarkan, vazifadorlarning hech biriga bir chaqa ham berilmasin."^[18]

Demak, hamma zamonlarda ham inson taqdiri va uning xavfsizligini ta'minlash birinchi o'rinda turgan. Buxoro xonligi me'morchiligida qat'iy tartib va intizom o'rnatilganligidan ham dalolat beradi. Usta va me'morlarga nisbatan qilinadigan bunday talabchanlik inson hayoti bilan bog'liq, albatta. Chunki yo'l qo'yilgan birgina xato noxush oqibatlarni keltirib chiqaradi. O'rnatilgan ana shu tartibga rioya qilinganligi sababli ham shayboniylar davridagi me'morchilik inshootlari pishiq va mustahkamligi bilan alohida ajralib turadi.

Buxoro, Samarqand, Toshkent va Balx shaharlarida qurilgan binolar qadimgi me'morchilik an'alariga asoslangan. Ularga yuksak darajada naqshlar tushirilgan va xattotlar tomonidan san'at darajasida ishlov berilgan. Xususan, ushbu davr manbalarida mashhur naqqosh va xottotlardan *Darvesh Muhammad (XVI asr)*, *Yusuf Naqqosh (XV asr oxiri-XVI asr 30-yillar)*, *Mir Ali Hiraviy (XVI asr)*, *Mir Husayin Kulanki (XVI asr)*, *Muhammad Murod Samarqandiy (XVI asr)*, kabi boshqalarning nomlari keltiriladi. Buxoroda madrasalar qurishda o'ziga xos tajriba shakllangan bo'lib, ular nafaqat o'quv yurti, balki o'ziga xos me'moriy inshoot ham bo'lgan.

Bu davrlarda Buxoro xonligida olib borilgan me'moriy qurilish ishlar ingliz sayyohi Antoni Jenkinsinning estaliklarida ham saqlanib qolgan. Sayyoh shaharda qurilishlar avj olganligini va yangi qurilgan Mir Arab madrasasida 200 dan ortiq talaba ta'lim olishi to'g'risida ma'lumot bergan.^[19]

Nafaqat poytaxt Buxoro, balki xonlikning boshqa mashhur shaharlaridan bo'lmish Samarqandda hamko'plab me'moriy bunyod etilgan. Xonlikda yirik bunyodkorlik va qurilish ishlari olib borilib, xonlar bu soha uchun katta mablag'lar ajratgan. Chunki oddiy uy – joy qurish uchun ketadigan sarf-xarajatlarni hisoblaydigan bo'lsak, bu kabi mahobatli binolarni bunyod etish juda ko'p mablag'ni talab

qilgan. Xonlarning bunday yo'l tutishlarining asosiy sabablaridan biri mamlakatning qay darajada iqtisodiy va madaniy qudratga ega ekanligini dunyoga ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri bo'lgan.

Shu bilan birga XVI asrda bizni quvontiradigan yana bir hodisa- mamlaktning o'ziga to'q qatlamining ham hukmdorlardan o'rnak olgan holda o'zlaridan bebaho yodgorliklar qoldirishga harakat qilganligi, ya'ni ular ham me'morchilik sohasining rivojiga ulkan hissa qo'shganligidir. Xuroson va Movarounnahr usta, me'morlarining o'z ishiga o'ta mohirligidan dalolat beradi hamda ular qurgan binolar Yevropada qad rostlagan ishootlarning birortasidan qolishmaydi.

XVI asr madaniy hayoti va ta'lim tizimi haqida gap ketganda, Buxoro xonligida yuksak mavqe'ga ega bo'lgan Jo'ybor xojalarining o'rnini ta'kidlab o'tish kerak. Chunki jo'yboriy shayxlar bu soha rivojiga xonlardan ham ko'proq hissa qo'shgan. Bu davr ijtimoiy- falsafiy va axloqiy qarashlarida islom dini va dinga munosabat masalasi asosiy o'rin tutadi. Ular bilvosita va bevosita mamlakat hukmdorlariga ham o'z so'zlarini o'tkaza olishgan. Katta-katta yerlar va mulklarni idora qilishgan. Boshqa shaharlarga nisbatan aynan Buxoroda masjid, madrasalarning ko'pligi ham shu jarayon bilan bog'liq.

Jo'yboriy xojalardan ayniqsa, Xoja Islom va Xoja Sa'd qurdirgan binolar ahamiyatga molik. Xoja Islom tomonidan bunyod etilgan Govkushon madrasasi uzoq yillar talabalarining bilim oladigan ma'rifat maskaniga aylanib keldi, u yerda asosan, a'lochi talabalar o'quv yili oxirida taqdirlanadigan marosimi ham o'tkazilar edi. Xoja Islom vafot etgach, o'g'li Xoja Sa'dning uning ishlarini davom ettirganligi, u ham ta'mirtalab binolarni tuzatishga mablag' ajratganligi tarixiy manbalarda keltirilgan.

Ushbu bob yuzasidan quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- Shayboniylar ta'lim-tarbiyaning va ilm-ma'rifatning mamlakat taraqqiyoti uchun nechog'lik muhim ekanligini yaxshi anglab yetgan va bu soha rivoji uchun shart-sharoitlar yaratib berish bilan birga, avvalo, o'zlari ma'rifatli bo'lishga harakat qilgan. Bu sulolaning eng qudratli vakili, shubhasiz, Abdullaxon II bo'lib, mamlakatni boshqarishda adolat tamoyillariga, qat'iy intizom talablariga rioya qilgaligi bois, turli sohalar bilan birgalikda madaniyat sohasi ham gurkirab rivoj topdi. Uning tarixdagi alohida xizmatlaridan biri mamlakatda ta'lim sohasi, me'morchilik, xattotlik, naqqoshlik, adabiyot, tarixnavislik, tibbiyotning yuksak bosqichga ko'tarilganligida ko'rinadi.

- Shayboniylar davrda Buxoro xonligida bunyod etilgan muhtasham imoratlar va o'quv inshootlari davlat hukmdorlari hamda o'ziga to'q qatlamning me'morchilik va madaniyat sohasiga alohida e'tibor berganligidan darak beradi.

- XVI asrda ta'lim muassasalarining ta'minot tizimi o'rta asrlarda qaror topgan an'analar asosida rivojlangan. Bu sohaga deyarli o'zgartirishlar kiritilmagan.

Mudarrislar va talabalar avvalgidek vaqf mulklaridan tushadigan mablag'lar va davlat ta'minoti orqali moliyalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jumanazar A . Buxoro ta'lim tizimi tarixi.- T.: Akademnashr,2017.- B.53-54.
2. Ibrohimov A.XVI asr O'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari.- T.: Fan,-1976. B.41- 42.
3. Ibrohimov A. Bizkim O'zbeklar... - T .: Sharq- B.45.
4. Sagdullaev A, Aminov B, Mavlonov U, Norqulov N . O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. - T.: Akademiya,-2000. B.169.
5. Qoraboev U, Soatov G. O'zbekiston madaniyati.- T.:2011.- B.106-107.
6. G'oziev .S, O'tasheva Sh. XVI asrda Movarounnahrda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy hayot. 2014.- B.30.
7. To'raev H. Buxoro xonligining XVI- XVII asrlar ijtimoiy- siyosiy va madaniy hayotida Juybor xojalarining tutgan o'rni. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan diss.- Toshkent, 2010 y. 246- bet.
8. Sagdullaev A, Aminov B, Mavlonov U, Norqulov N . O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. - Toshkent.: Akademiya, 2000 y. 171- bet.
9. Qandaxorov A. Buxoro xonligi va unda karmanalik shayxlar faoliyati.- Toshkent.: Tafakkur qanoti, 2008 y. 85 bet.
10. G'oziev .S, O'tasheva Sh. XVI asrda Movarounnahrda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy hayot. –Toshkent, 2014 y. 32- bet.
11. To'raev H. Buxoro xonligining XVI- XVII asrlar ijtimoiy- siyosiy va madaniy hayotida Juybor xojalarining tutgan o'rni. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan diss.- Toshkent, 2010 y. 247- bet.
12. Jumanazar A .Buxoro ta'lim tizimi tarixi.- Toshkent.Akademnashr, 2017 y. 75– bet.